

## AVESTODA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALALARI

University of science and Technologies  
“Ijtimoiy fanlar” kafedresi mudiri N.Z.Madaminova,  
Turizm 101-guruh talabasi M.D.Rahmatova

Mustaqillik insonning jamiyat va uning taraqqiyoti to'g'risidagi qarashlarini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi inson tafakkuri yangicha asosda shakllanyapti. O'tmishda yagona nazariy qolipga solingan jamiyat to'g'risidagi bir tomonlama qarashlarni yangicha fikrlash siqib chiqarmoqda. Inson tafakkurining o'zgarishi duyoni butkul o'zgacha, xolisona idrok etishga undayaptiyu Jamiyatda yangicha tafakkurga mos munosabatlar, boshqaruv jarayonlari va tomonlari, me'yorlari qaror topmoqda. Butun mamlakat oldida turgan ulug'vor maqsadlarga erishish, ma'naviy barkamol avlodni voyaga etkazish va shu asosda har bir yoshda yangicha tafakkur shakllanishi, uning dunyoga munosabati asosida insonni komillikka eltuvchi sog'lom fikr, yuksak ong va madaniyat qaror topmog'i zarur. Har jihatdan etuk, barkamol avlodni voyaga etkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridani biridir. Bu yo'lda unga halaqit berishi mumkin bo'lgan turli salbiy xatti-harakatlar va illatlardan insonning saqlanmog'i davr talabidir.

Bu jarayonda ma'naviy – axloqiy immunitetni shakllantirishning g'oyaviy manbalaridan biri bundan uch ming yil avval Vatanimizda yuzaga kelgan zardushtiylik dinining muqaddas manbasi hisoblanmish “Avesto”dir. Har bir millat tarixi va qadriyatlarini bilish uchun, uning insoniyat bag'rida qoldirgan ma'naviy javohirlarini anglamoq zarur. O'z madaniyati, tarixi va taqdiri uzoq zamonlarga borib taqaluvchi O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyati zardushtiylik dini bilan bog'lanishi bejiz emas.

Eramizdan avvalgi ming yillar davrida O'rta Osiyo, Eron hamda Hindistonda keng tarqalgan zardushtiylik dini nafaqat o'z davri, balki keyingi davr jahon ma'naviy – ruhiy taraqqiyoti tarixida ham juda katta rol o'ynagan.

Ayniqsa, “Avesto”da insonning ruhiy va jismoniy kamoloti ezgulikni ko'proq yoyib, yovuzlikni bartaraf etishga qaratilgan harakat sifatida hayotning bosh maqsadi ekaniga urg'u berilganligi diqqatga sazovordir. Zardusht fikricha, o'z hayoti davomida go'zallik va yaxshilik, nur va quvonch yo'lida xizmat qilgan odam porso va haqgo'y, pok va adolatli bo'lib, mehmonlarni beg'araz kutgan, xotinini sevib, yerni, mollarni parvarish qilgan, odamlarning mol – mulkiga ko'z olaytirmagan, tabiatni asrab – avaylab undan zavq olgani uchun u o'lgandan keyin uning joni ham bitmas – tunganmas rohat va farog'atga burkanadi.

Gunohkorning esa joni chiqqach, uning joni boshi atrofida tentiraydi va uch kun davomida barcha yomon odamlar tortadigan noxushlikni ko'radi. Uch kundan keyin gunohkor joni o'zi bunyod etgan yomonlik va razolatlarda ustida uchadi. Gunohkorni o'limidan keyin kutayotgan narsa uning tanasi bilan joni o'rtasidagi ixtilofdir. Qayerda ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish uyg'unligi bo'lsa, o'sha yerda olijanoblik va go'zallik g'alaba qozonadi, qachonki tana va jon nifoqqa uchrasa, inson hayoti tanazzulda, joni esa qilgan yomonliklari jabrini tortib, azobda qoladi.

Bundan tashqari, “Avesto”da qadimgi bobokalonlarimizning hayot va inson, axloq va odob, go‘zallik va ijod, qishloq xo‘jaligi va jamiyatdagi adolat to‘g‘risidagi falsafiy mushohadalari o‘z ifodasini topgan.

Zardushtiylkda mehnat, insonning yaratuvchilik faoliyati tana va jondagi barcha nopok kuchlarni quvadi. Faqat mehnat tufayli va yaxshi amallar orqali nur va shodlik olamini ko‘paytirish, haqiqat, tinchlik va adolatga erishish mumkin deyiladi.

Axuramazda odamlarni bir – biri bilan murosqa qilib yashashni odat qilishlari, g‘arazgo‘ylik, hasadgo‘ylik, kalondimog‘lik, shuxrastparastlik, qonunsiz ishlardan o‘zlarini tiyib yurish uchun intilishga chaqiradi. Bergan so‘zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo – sotiqda shartnomalarga amal qilish, qarzni vaqtida to‘lash, aldanchilik va xiyonatdan holi bo‘lish imonlilik alomatlari ekanligi aytiladi. Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko‘proq qayg‘uring, ya‘ni avval ma‘naviy dunyoingiz musaffo bo‘lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo‘lib boraveradi deyiladi “Avesto”da.

“Avesto”da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e‘tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh– urug‘, aka – ukaning quda – anda bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmagan. Insonning va ma‘naviy pokligi zardushtiylk axloqining asosiy talablaridan hisoblangan. Oila va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish taqiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya‘ni buzuqchilik gunohini sodir etsa, unday kishilar tayoq bilan jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar.

“Avesto”ning barcha qismlari insonga hurmat tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan. Yeru ko‘kdagi barcha hayotiy nozu-ne‘matlarni sevish va ardoqlash inson uchun muqaddas burch hamda vazifa hisoblangan. Inson burchining bunday yuksak qadrlanishi, shaxsiy axloqiy kamolotni boshqalarga xayrixohlik tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilishi, haqiqiy donishmandlikka intilish hamda yolg‘onchilik va yomonlikka nisbatan nafrat zardushtiy axloqiy ta‘limoti erishgan katta muvaffaqiyat edi. Oxiratda ham ahloqiy pok odamlar razil va munofiqalarni yengib, abadiy quvonch bag‘rida yayraydilar.

Zardushtiylk rivoyatlarga to‘lib – toshgan dunyoqarashiga qaramay, har narsada insonparvarlikni, tinchlik va bunyodkorlikni birinchi o‘ringa qo‘yishi uni insoniyat tarixida, O‘zbekiston xalqlari tarixida buyuk ma‘naviy meros sifatida benazir ahamiyatga egadir.

Xullas, “Avesto” yuqorida ta‘kidlaganimizdek, ajdodlarimizning ma‘naviy-axloqiy tarbiya qomusi, qadimiy urf – odatlarimizning o‘ziga xos, abadiyatga daxldor majmui sifatida qimmatlidir.

Bizning hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalarimizdan biri ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan ma‘naviy boyliklarimizni mazmun – mohiyatini yoshlarimiz ongiga singdirib, ulardan xolisona xulosa chiqarib, jamiyatimiz taraqqiyotiga o‘z xissasini qo‘shadigan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Yetuk shaxsning zamonaviy qiyofasini ta‘riflaydigan bo‘lsak – ozod, o‘z haq-huquqini taniydigan, yaxshi yashash uchun aqlu bilimlarini ishga sola oladigan, shaxsiy manfaati bilan jamiyat manfaatini uyg‘un holda ko‘radigan

odam.

Demak, yetuk, barkamol inson o‘z tarixi, o‘z xalqi, o‘tmishi haqida haqiqatlarni bilib olgan, iymoni butun, xulq-atvori namunali shaxsdir. Shaxs esa jamiyatda ibrat bo‘ladigan ishlarni amalga oshirgan ongu-shuuri, to‘g‘ri so‘zi, jonkuyarligi bilan ajralib turgan obro‘-e‘tiborli odamdir.

Eng muhim vazifalardan biri o‘sib kelayotgan avlodga, uning ma‘naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashishi masalasi. Nega deganda, yoshlar kelajagimizning munosib egalaridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “Avesto” kitobi-tariximiz va ma‘naviyatimizning ilk yozma manbai mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. T., 2000.
2. T. Maxmudov “Avesto” haqida. T., 2000.
3. A.Ashirov “O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari”. T., 2007.